

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
Vazirligi
Toshkent To‘qimachilik va Engil sanoat institute**



“Informatika va AT“ kafedrası

R E F E R A T



Bajardi: 1-03 guruh talabasi [Bekzod Qurbonov](#).

Tekshirdi: [A. Ne'matov](#).

Toshkent – 2014 yil.

HTML tili.

HTML (**Hyper Text Marker Lanquaqe – gipermatnni belgilash tili**) WWW tizimi uchun hujjat tayyorlashda ishlatiladi . HTML tili WWW da gipermatn hujjatlarni tayyorlash vositasidir . WWW tizimidan qandaydir hujjat yoki xabar olsangiz ekranda yaxshi formatlangan o‘qish uchun qulay matn paydo bo‘lganini ko‘ramiz. Bu shuni anglatadiki, WWW hujjatlarida ma’lumotlarni ekranda boshqarish imkoniyati ham mavjud .

Siz foydalanuvchi qaysi kompyuterda ishlashini bilmaysiz, WWW xujjatlar aniq bir kompyuter platformalariga mo‘ljallangan yoki qaysidir format bilan saqlanishini oldindan ayta olamiz, ammo kompyuter ishlatoyotgan foydalanuvchi qaysi terminalda ishlashidan qat’iy nazar, yaxshi formatlangan xujjatni olishi kerak. Bu muammoni HTML andoza tili hal qiladi.

HTML xujjatning tuzilishini ifodalovchi uncha murakkab bo‘lmagan buyruqlar majmuidan iborat. HTML buyruqlari orqali matnlarni istagancha shaklini o‘zgartirish, ya’ni matnning ma’lum bir qismini ajratib olib boshqa faylga yozishi. Shuningdek boshqa joylardan turli xil rangli tasvirlarni qo‘shish mumkin. U boshqa xujjatalar bilan bog‘laydigan gipermatnli aloqalarga ega.

Agarda siz WWW olamida o‘zingiz alohoda Web uzelingizni yaratmoqchi bo‘ldingiz deylik. Uni amalgam oshirishda va uni qiziqarli, foydali bo‘lishi uchun beriladigan birinchi savol – bu nima maqsadda Web uzal yaratmoqchisiz? Bu savolga javob bersak ko‘p narsalar ma’lum bo‘ladi. masalan qanday uslubda joylashtirish, uni yaratish va keyingi faoliyati uchun sarflanadigan harajatlar, ma’lumotlarni qanday formatlarda Web uzelda joylashtirish, aloqa kanallari va ta’minlash programmalar tanlashdan iborat bo‘ladi. Bu joyda bir necha variantlar mavjud.

1-variant. Agarda siz Web uzelni birorta sotuvchilik bilan shug‘ullanayotgan kompaniya uchun yaratmoqchi bo‘lsangiz shu kompaniya haqida xabar tarqatishdan va uni tovarlarini reklama qilishdan yoki Web do‘koni ochishdan iboratdir. U holda keyingi masalalar hal qilinadi.

- Kompaniyani imidjini o‘zgartirish va uni saviyasini ko‘tarish kerak,
- sotuv markasini mukammallashtirish,
- mahsulotlar haqida ma’lumotlarni hamma uchun qulayligini ta’minlash,
- dilerlar bilan aloqani mustahkamlash va takomillashtirish,
- mahsulotni to‘g‘ridan to‘g‘ri internet orqali, Web do‘konlarida sotish,
- ichki ma’lumotlarni hamma xodimlar uchun qulayligi, shular qatorida ishxonadan tashqarida ishlovchilar uchun ham.

2-variant. Agarda siz Web uzelni ilmiy yoki umumiy ta’lim korxonalari uchun, ya’ni tijorat bilan shug‘ullanmaydigan, faqat ma’lumot tarqatuvchilar uchun yaratmoqchi bo‘lsangiz, u holda, faqat Web uzelda ulkan ma’lumotlarni yig‘ish va joylashtirish to‘g‘risida so‘z ketadi. Bu ma’lumotlar etarli darajada qo‘llanilishi uchun qulay va oson bo‘lishi kerak.

3-variant. Bu holda siz o‘zingizni alohida internetda sahifangizni ochasiz. Buning uchun:

- qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri javob berish uchun, qo‘llanuvchilarni kategoriyalarda ajratish kerak. Qo‘llanuvchilar psixologiyasidan kelib chiqqan holda, ma’lumotlar strukturasi shunday yaratilishi kerakki, u qo‘llanuvchilarni jalb qilsin hamda ushlab qolsin. Keyinchalik Web uzel bilan bog‘liq bo‘lgan har bir harakat mijozlarni buni qanday qabul qilishiga va qanday ko‘nilishiga asoslanib qo‘llanishi kerak.

- qo‘llanuvchilar kategoriyasi va maqsadi aniqlangandan keyin, Web xujjatlarida tayyorlov ma’lumotlarini to‘g‘ri taqsimlash kerak va ular orasidagi aloqani mustahkamlashga harakat qilishi kerak.

Hozirgi kunda internet uchun Web saytlar va sahifalarni yaratishda bir necha texnologiyalar mavjud. Shulardan biri HTML tili Web sahifani tayyorlash texnologiyasidir. HTML tilini oddiy programmalash tiliga yaqin bo‘lib, asosan Web sahifalar tayyorlashda ishlatiladi. HTML tilida yozilgan xujjat fayli HTML yoki HTML kengaytmaga ega bo‘ldi.

HTML xujjat fayli tashkil qilish uchun istalgan oddiy matn muharriridan foydalansa bo‘ladi. Masalan: Bloknot, Word Pad, faqat saqlash vaqtida uning kengaytmasi HTML bo‘lishi kerak. HTML faylining piktogrammasi **e** bo‘ladi.

Gipermatn bu – maxsus kodlashtirilgan matn bo‘lib, u o‘z ichiga qo‘shimcha boshqaruvchi elementlarni oladi: formatlash, tasvirlash, multimedia qo‘yish va giperssilkalarni o‘z ichiga oladi.

HTML tili kodlariga **tiga** deb yuritiladi. Tegalar maxsus simvollardan tashkil topgan bo‘lib, ularning barchasi belgisi ichida yoziladi. Har bir tega o‘z vazifasiga ega bo‘lib, boshlovchi va yopuvchi tegalardan tashkil topgan. Boshlovchi tega <0> , yonuvchi tega </ > kabi belgilanadi. Har bir xujjat <HTML> tega bilan boshlanib, </HTML> tega bilan tugaydi.

HTML xujjati bir necha funksional bo‘laklardan tashkil topadi. Har bir funksional bo‘lak <HEAD> tega bilan oshlanib, </HEAD> tega bilan tugaydi. Har bir funksional bo‘lak sarlavhalari <TITLE> bilan boshlanib, </TITLE> bilan tugaydi. Funksional bo‘lakning asosiy qismlari esa <BODY> bilan boshlanadi va </BODY> bilan tugaydi. Brouzer HTML xujjatni o‘qiganida ularning borligi xujjat bo‘limlarini aniq ko‘rsatadi. Agar ular bo‘lmasa ham Brouzer HTML xujjatni to‘g‘ri o‘qiyda, lekin xujjat bo‘limlari bir-birlaridan ajralib turmaydi.

Quyidagi oddiy strukturaga ega bo‘lgan HTML xujjatini ko‘ramiz:

```
<HTML>  
<HEAD>  
<TITLE> xujjat sarlavhasi </TITLE>  
</HEAD>  
<BODY>
```

Xujjatning asosiy qismi
</BODY>
</HTML>

Bunda <HEAD>, </HEAD> orasida joylashgan sarlavhaga oid ma'lumotqismida odatda foydalanuvchiga e'tiborsiz, lekin Brouzer uchun lozim ma'lumot beriladi.

<BODY>, </BODY> orasiga esa to'laligicha uning operatorlari ketma-ketligi joylashtiriladi.

HTML tili operatorlari.

HTML tili operatorlariga asosan quyidagilar kiradi:

<A>... - xujjarga giperaloqani o'rgatish. Ushbu giperaloqaga olib boruvchi URL ta'riflovchisi HREF atributiga <HREF=HTTP://www.goantispa.html> A </> ko'rinishdagi giperaloqa sifatida tasvirlanuvchi ixtiyoriy so'zlar.

<ABBR>...</ABBR> - o'z matnini abbreviaturalarini belgilash uchun ishlatiladi. U orqali akronimlarni (abbreviaturalardan iborat so'zlarni) belgilash tavsiya etiladi.

<ADDRESS>...</ADDRESS> - xujjat muallifini belgilash va mazmunini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

... - matnni qalinlashtirilgan shrift bilan tasvirlaydi.

<BASEFONT>...</BASEFONT> - xujjatda avvaldan qabul qilingan shriftni o'lchami, turi va rangini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

<BIG>...</BIG> - katta o'lchamdagi matnni ko'rsatadi.

<BLINK>...</BLINK> - o'chib-yonib turuvchi matnni tasvirlaydi.

<BODY>...</BODY> - Web varaqni to'ldiruvchi matn, deskriptorlar va boshqa ma'lumotlarni aniqlaydi.

<CAPTION ALIGN (TOP yoki BOTTOM)>...</CAPTION> - jadval sarlavhasi tegasi.

<CITE>...</CITE> - kitob nomlari yoki sitatalar va maqolalar boshqa manbalarga murojat va hokazolarni belgilash uchun ishlatiladi.

<CODE>...</CODE> - o'z matnini dastur kodining katta bo'lmagan qismi sifatida aniqlaydi.

... - o'z matnini o'chirilgan sifatida aniqlaydi.

<DFN>...</DFN> - o'z matn qismini ta'rif sifatida aniqlaydi.

<DL> ... </DL> - ta'riflar ro'yxatini ko'rsatadi. Ichida <DT> tega orqali aniqlanayotgan termin, <DD> tega bilan esa abzats o'z ta'rifi bilan aniqlanadi.

 ... - matnning zarur qismlarini ajratish uchun ishlatiladi. Odatda bu qo'lyozmali ko'rinishlardir.

 ... - shrift parametrlarini ko'rsatadi. Parametrlar: FACE (shrift turi), SIZE (shrift o'lchami) va COLOR (shrift rangi).

<HEAD> ... </HEAD> - sarlavhani aniqlaydi, xujjat haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi. Masalan: nomi.

<HR> ... </HR> - gorizontaal chiziq (chizg'ich) qo'yadi.

<HTML> ... </HTML> - sizning xujjatingizni kodlashtirishda ishlatish uchun tilni aniqlaydi. Ochuvchi xujjatni boshida, yopuvchi esa oxirida joylashtiriladi.

<I> ... </I> - matnni qo'lyozma shrift bilan rasvirlaydi.

<INS> ... </INS> - o'z matnini orasiga joylashtirish kabi aniqlaydi.

<KBD> ... </KBD> - matnni foydalanuvchi tomonidan klaviatura orqali kiritilgan kabi aniqlaydi. Odatda monoshirin shrift bilan tasvirlaydi.

 ... - ro'yxatdagi har bir element boshlanishini aniqlaydi.

 ... - to'liq tartiblangan ro'yxatni aniqlaydi. LI – uning elementlari.

<PRE> ... </PRE> - oldindan formatlangan matnni aniqlaydi.

<Q> ... </Q> - qisqa sitatalarni matn satrida belgilaydi. Odatda qo'lyozma shaklida tasvirlaydi.

<SAMP> ... </SAMP> - matnni namuna sifatida belgilaydi.

<SMALL> ... </SMALL> - kichik o'lchamdagi matnni ko'rsatadi.

 ... - matn qismining xossalarini bekor qilish zarur bo'lganda ishlatiladi.

 ... - matnning muhim qismlarini ajratish uchun odatda qalinroq shrift ko'rinishida bo'ladi.

<TABLE BORDER> - ramka qalinligi.

<CELLSPACING> - qo'shni yacheykalar orasidagi masofa.

</TABLE> - jadvalni aniqlaydi. (<TR>, <TD>, <TH> ga qarang).

<TD> ... </TD> - jadval satrida alohida yacheykani ramkaga oladi.

<TH> ... </TH> - jadval sarlavha yacheykasi uchun ishlatiladi.

<TITLE> ... </TITLE> - sarlavhani tashkil etadi.

<HEAD> ... </HEAD> - sarlavhaga oid ma'lumotlar.

<TR> ... </TR> - jadvalda satrning boshi va oxiri.

<U> ... </U> - matnning ostki qismi chizilgan holda tasvirlaydi.

 ... - to'la tartiblanmagan ro'yxatni aniqlaydi.

<VAR> ... </VAR> - dastur o'zgartuvchilar nomlarini belgilaydi.

Odatda kursiv ko'rinishida bo'ladi.

HTML tili oltitagacha ichma-ich joylashgan xujjat sarlavhalarini o'z ichiga olishi mumkin. Bular esa:

<H1> ... </H1> ,

<H2> ... </H2> ,

<H3> ... </H3> ,

<H4> ... </H4> ,

<H5> ... </H5> ,

<H6> ... </H6> .

Bular <H1> ... </H1> bilan boshlanib, <H6> ... </H6> bilan tugaydi.
Abzatslarni belgilash uchun <P> ... </P> tegasi ishlatiladi.
Xujjat qismini bir-biridan ajratish uchun esa <HR> tegasi ishlatiladi, ya'ni
bu chiziq gorizontaal chiziq qo'yadi.

 yangi qatorga o'tish.

DHTML kengaytirish.

Albatta DHTML xaqq o'tishi bilan murakkablashib boradi. HTML andozalari ham takomillashib boradi. DHTML (Dynamic HTML) – HTML xujjatining yangi andozasidir. U quyidagi yangiliklarni amalgam oshiradi.

- HTML xujjatni ko'chirishda mumkin bo'lgan hodisalar sonini kengaytirishni amalgam oshiradi.
- HTML xujjatga uning mos elementning parametric bo'lgan formatlash stilini, ya'ni harf o'lchovi, matn rangi, abzats chekinishlari va hokazo imkoniyatlarni kiritishni amalgam oshiradi.

Stilli formatlash, HTML xujjat ichida matnni rasmiylashtirish, variantlarni tasvirlash uchun xizmat qiladi. Bu esa HTML ichida mustaqil ravishda shriftlarni va uning o'lchamlarini, abzats chekinishlarini elementlarning ramkasi, ranglarini va boshqalarni berish imkoniyatlarini tug'diradi.

Brauzer dastur ko'rib chiqadigan hodisalar sonini ko'paytirish, xujjat dizaynini yaxshilashga olib keladi. Bunday imkoniyatlar, ya'ni DHTML andozani qo'llash faqat MS Internet Explorer 4.0 dan boshlab amalgam oshiriladi. Eski brouzerlar DHTMLni qo'llamasligi ham mumkinligini esda saqlash lozim

HTML da dasturlash tillaridan foydalanish.

Html ni rivojida DHTMLdan tashqari Internet sahifalarini yaratishda yana bir imkoniyat dasturlar ishchi holatini saqlab turish paydo bo'ladi. Uning yordamida HTML xujjatga u yoki bu samaralarni (yangi elementlarni) kiritish mumkin.

HTML xujjatida asosiy tushunchalardan biri gipermurojatdir (гиперссылка). Gipermatnli murojat tashkil qilish juda oddiy bajariladi. Bu gipermatn <A> ... tegasi ichida ko'rsatiladi.

Bu tega "HREF=" atributiga ega bo'lib, atributda murojat qilinayotgan Web sahifaning adresi ko'rsatiladi. Agar Web sahifa Web uzelnig boshqa joyida joylashgan bo'lsa, to'liq adresni ko'rsatish shart. Agar ular bitta joyda joylashgan bo'lsa, u holda faqat sahifa nomi ko'rsatilishi shart.

Misol:

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> Komiljon Otaniyozov </TOTLE>
</HEAD>
<BODY>
```

Bu erda Komiljon Otaniyozon haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

`<A HREF="ma'lumot turgan adres ko'rsatiladi">`

Komiljon Otaniyozov

`</A>`

`</BODY>`

`</HTML>`

Bundan tashqari Web sahifaga har hil rasmlar va multimedialarni ham ulash mumkin.

Web sahifada rasm ulash uchun `<IMG>` tegasi ishlatiladi. bu teganing asosiy atributi `"SRC="` bo'lib, atributda rasm faylning adresi ko'rsatiladi. Agar bitta joyda turgan bo'lsa, uning adresini to'liq ko'rsatish shart emas. Aks holda uning turgan adresi to'liq ko'rsatilishi shart.

Bundan tashqari rasmni har xil masshtabda ko'rish imkoniyati ham mavjud, ya'ni uni hohlagan o'lchamda qo'yishimiz mumkin. Buning uchun `<WIDTH>` va `<HEIGHT>` tegalari ishlatiladi.

Masalan: `<WIDTH=100 HEIGHT=100>`.

Web sahifaga multimedia obyektlarini joylashtirish uchun `<EMBED>` tegasi ishlatiladi. Uning atributi `"SRC="` bo'ladi.

